

Qabul qilindi: 15.11.2024

Chop etildi: 28.12.2024

UO'K: 910.4 (091):94.(584.4)

## BUXORO AMIRLIGI JANUBIY BEKLIKLARIDAGI AHOLINING DEMOGRAFIK JARAYONLARI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

<sup>1</sup>Xolmuminov Xusan Eshmo'minovich, Termiz davlat universiteti  
"Jahon tarixi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)

<sup>2</sup>Eshmo'minov Ozodbek Ziyodulla o'g'li, Termiz davlat universiteti  
"Jahon tarixi" kafedrasida o'qituvchisi



1

<https://orcid.org/0009-0003-6634-6020>

e-mail:

[xusan\\_75xolmuminov@mail.ru](mailto:xusan_75xolmuminov@mail.ru)



2

## DEMOGRAPHIC PROCESSES OF THE POPULATION IN THE SOUTHERN COUNTRIES OF BUKHARA EMIRATE (END OF THE XIX CENTURY – BEGINNING OF THE XX CENTURY)

<sup>1</sup>Xolmuminov Xusan Eshmo'minovich, associate professor of  
the "World History" department of Termiz State University, doctor  
of historical sciences (DSc)

<sup>2</sup>Eshmominov Ozodbek Ziyodulla o'g'li, teacher of the "World  
History" department of Termiz State University

## ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНЫХ ТЕРРИТОРИЙ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)

<sup>1</sup>Холмунинов Хусан Эшмунинович, доцент кафедры  
"Всемирная история" Термезского государственного  
университета, доктор исторических наук (DSc)

<sup>2</sup>Эшмунинов Озодбек Зиёдулла оғли, преподаватель кафедры  
"Всемирная история" Термезского государственного  
университета

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi aholining demografik jarayonlar ham shu davrdagi mavjud beklklardagi aholining ijtimoiy demografik jarayonlari ilmiy tahlil etilgan. Bu davrda beklklarga tegishli amlokdorliklardagi boshqaruv tizimi xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar :** Buxoro amirligi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, G'uzor, Boysun, Denov, Sherobod beklklari, amlokliklar, aholi demografiyasi, urbanizatsiya jarayonlari.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the demographic processes of the population in the southern regions of the Bukhara Emirate, as well as the socio-demographic processes of the population in the existing beyliks of this period. Information is provided about the management system in the estates belonging to the beyliks during this period.

**Keywords:** Bukhara Emirate, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, Guzar, Boysun, Denov, Sherabad beyliks, estates, population demography, urbanization processes.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются демографические процессы населения в южных районах Бухарского эмирата и социально-демографические процессы населения в существующих регионах того же периода. За этот период была представлена информация о системе управления имуществом, принадлежащим бекликам.

*Ключевые слова: Бухарский эмират, Китаб, Шахрисабз, Яккабог, Чиракчи, Гузор, Байсун, Денов, Шерабадский Беклик, недвижимост, демография населения, процессы урбанизации.*

**KIRISH.** So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi janubiy vohalaridagi aholining demografik holati, xalqlarning migratsiyasi va uning oqibatlarini, xo‘jalik hayotidagi o‘zgarishlar, turli tarixiy voqealar ta‘sirida aholining majburan ko‘chishi bilan bog‘liq masalalarning ayrim jihatlarini o‘rganilmoqda. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish omillarini tadqiq etish, xalqlarning urf-odatlarini hamda turmush tarzidagi o‘zgarishlar, aholini ro‘yxatga olishning tarixiy tajribasi bilan bog‘liq ilmiy-amaliy loyihalar ham amalga oshirilmoqda.

**MUHOKAMA.** XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro amirligining janubiy vohalarda joylashgan bekliliklaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘ziga xos tarzda kechgan edi. Jumladan, bu davrdagi ichki nizolar, xonliklarning istilochilik yurishlari mamlakatning siyosiy va iqtisodiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Markazlashgan davlat boshqaruvining mavjud emasligi, qo‘shni davlatlardagi siyosiy beqarorlik turli tabiiy ofatlar ham aholi turmush darajasining og‘irlashuviga sabab bo‘lgan. Ma‘lumotlarda ko‘rsatilishicha, XIX asr oxirida Buxoro amirligida 27 ta beklilik bo‘lib, ma‘muriy jihatdan ular amlokliklarga bo‘lingan edi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda 28 ta beklilik va 9 tumandan iborat deb fikr bildirilgan bo‘lsa, A.Muxammadjanov tahriri ostida chop etilgan asarda amirlik 27 ta beklilik va 11 ta tumandan iborat bo‘lgan. Shuningdek, bu davrda qo‘shni mamlakatlar zo‘ravonligi va talonchiligi hamda turli tabiiy ofatlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga va o‘z navbatida aholi turmush darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi[2.93].

Buxoro amirligi mang‘itlar hukmronligi davrida amir tomonidan boshqarilgan va monarxiya boshqaruviga asoslangan edi. Amir to‘liq amalda dunyoviy va diniy hokimiyat egasi hisoblangan. Amirlik hududi viloyatlarga, kentlarga bo‘lib boshqarilgan. Bu hududlarni esa amir tomonidan tayinlangan beklar va amlokdorlar boshqargan va ular o‘z navbatida amirga bo‘ysungan[3.28].

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ma‘muriy-hududiy bo‘linishi jihatidan 27 ta beklilik (viloyat) va 11

tumandan iborat bo‘lib[4.4], har bir beklilik, o‘z navbatida amlokliklarga bo‘lingan va bek tomonidan tayinlanadigan, lavozimidan ozod etiladigan amlokdor tomonidan boshqarilgan. Amlokdorliklar esa, bir necha qishloqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni qishloqning yoshi ulug‘ va tajribali oqsoqollari boshqargan. Har bir amlokdorlik asosiy mansabdor, ya‘ni mirob, zakotchi va dorug‘aboshilar orqali boshqarilgan. Mirob – hududning sug‘orish tizimini kuzatish va suvni taqsimlash vazifasini bajargan bo‘lsa, zakotchi soliq va yig‘imlarni nazorat qilib turgan. Bu davrda Buxoro amirligi janubiy hududlaridagi bekliliklarda ijtimoiy jarayonlarda boshqaruv tartiblari o‘ziga xos tarzda bo‘lgan. Jumladan, Kitob bekligi – 9 ta, Shahrizabz bekligi – 14, Yakkabog‘ – 11, Chiroqchi – 6, G‘uzor – 6 ta, Boysun bekligi – 4 ta, Denov bekligi – 6 ta, Sherobod bekligi – 6 ta amloklikdan iborat bo‘lgan[5.164].

Janubiy vohalaridagi demografik jarayonlar, urbanizatsiya hamda migratsiya masalalari, manzilgozlar joylashuvi, aholi soni milliy tarkibi va ijtimoiy holatlarini ilmiy tatbiq etish juda muhim masalalardan biri sanaladi. Janubiy vohalar bekliliklari hamda undagi shaharlar nafaqat boshqaruv tizimida, balki, butun amirlikning siyosiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan[6.338].

Davlat boshqaruvi idoralari markaziy va mahalliy tizimlardan tashkil topgan. Mahalliy boshqaruvda viloyatlarni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan, bekliliklar o‘z o‘rnida amlokliklarga bo‘lingan. Amlokliklar o‘z tarkibiga bir necha qishloqlarni qamrab olgan. Amlokdorlar bek tomonidan tayinlangan. Qishloqlarni qishloq oqsoqollari boshqargan. Oqsoqollar qishloqlarning katta-kichikligiga qarab taqsimlangan. Bek o‘ziga topshirilgan hududda ma‘muriy, sud, mirshablik va moliya ishlarini o‘z qo‘lida saqlab turgan. Bek o‘ziga topshirilgan hududni nazorat qilish va qo‘riqlash uchun bir necha o‘ntadan bir necha yuzga yaqin sarbozga ega bo‘lgan. Turli bosqinchi to‘dalar va dehqonlarning norozilik chiqishlari shu qo‘shin yordamida yoki amir yuborgan sarbozlar yordamida bostirilgan[7.56].

Bu davrda xonliklar tomonidan janubiy hududlarni egallash maqsadida bir necha bor yurishlar olib borilgan[8.72]. Jumladan, Termiz

haqiqatan ham Buxoro xonligining muhim strategik mustahkam qal'aga ega shaharlaridan biri bo'lib, bir tomondan Amudaryoning keng qirg'oqlari, ikkinchi tomondan bo'ysunmas va isyonkor qo'ng'irot urug'ining turli qabilalari uni yanada kuchli himoya qilar edi[9.214]. Ana shunday mustahkam qal'ani egallash orqali Ubaydullaxon o'zining hukmronligi davrida (1702 – 1711-yillar) ikki maqsadni amalga oshirishni ko'zlagandi. Birinchidan, Balx yo'lidagi mustahkam qal'aga egalik qilish, ikkinchidan, bo'ysunmas va isyonkor qo'ng'irotlar hukmdori SHERALINI hokimiyatdan chetlatish. Mazkur sabablar tufayli Termizga harbiy yurish amalga oshirilib, qo'ng'irotlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan olindi, nayman urug'idan Ne'matullabiy mazkur vazifaga tayinlandi. Ushbu siyosiy voqeyliklar davrida SHERALIXON Sherobod shahriga asos soldi. Janubiy vohalar beklilari hududida joylashgan Sherobod keyinchalik amirlikning eng muhim o'rin tutuvchi shaharlaridan biriga aylandi[10.160].

Boysun amlodkorligi Shayit, Gaza, Poygaboshi, Sho'rsay, Rabot, Inoqobod, Qorabo'yin, Pasurxi, Sariosiyo va Avlod kabi 10 ta qishloqlardan iborat bo'lgan.

Bu qishloqlarda mavjud aholi soni va ularning ijtimoiy holati ham turlicha bo'lgan.

Jumladan, Gaza, Poygaboshi va Rabot qishloqlari beklilik ma'muriy markaziga yaqin bo'lganligi uchun ushbu qishloqlar aholisi soni yuqoriroq hamda milliy tarkibi jihatidan boshqa qishloqlarga qaraganda xilma-xil bo'lganligini ko'rish mumkin. Avlod va Sariosiyo qishloqlari aholisi milliy tarkibida tojiklar aholining asosiy qismini tashkil etgan [11.63].

Buxoro amirligi hududiga qarashli bekliliklar tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra, Qashqadaryo vohasi hududidagi joylashgan bekliliklar – Qarshi, G'uzor, Yakkabog', Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi bekliliklari kirgan. Surxondaryo vohasi hududidagi bekliliklar – Boysun, Denov, Sherobod, Sarijuy, Sharqiy Buxoro hududlarida – Qobodiyon, Qo'rg'ontepa, Hisor, Qorategin, Ko'lob, Baljuvon, Daroz, Sho'g'non kabi bekliliklar joylashganligi keltirib o'tilgan. Ulardan Shahrisabz, Qarshi, Yakkabog', Chiroqchi, Boysun, Sherobod, Denov bekliliklari esa janubiy vohalarda joylashgan eng yirik bekliliklardan hisoblangan. XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligi hududlari Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng hududlargacha cho'zilgan edi [12.63].

Surxon vohasi hududidagi Sherobod bekligi, Sherobod daryosi yuqori va o'rta oqimlari, Ko'hitang tog'i etaklari, Boysun bekligi, Kalif bekligi, Amudaryo orqali Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan Sherobod bekligi hududi amirlikdagi eng katta hududlardan biri hisoblanib, 6 ta amlodkorlikni o'z ichiga olgan.

Sherobod bekligiga kiruvchi Poshxurd qishlog'i Kelif chegarasigacha bo'lgan hududni egallab, Sherobodaryo qirg'og'i bo'ylab, To'g'izgumbaz qishlog'i, Cho'chqaguzarga boradigan yo'l bo'ylab Novbog' qishloqlari bilan bog'langan. Sherobod bekligida aholi xo'jaliklarining geografik-hududiy joylashuvi janubda Amudaryoning Qorakamar kechuvidan Pattakesargacha (Sherobod bekligida to'rtta kechuv bo'lgan: Pattakesar, Sho'rob, Cho'chqaguzar va Qorakamar), shuningdek, sharqda Surxondaryoning o'ng qirg'og'i, shimoli-g'arbda esa Istara arig'idan Tallashqon va Xo'janqo tog' etaklarigacha bo'lgan hududlarni egallagan. Bu davrda Sherobod bekligi aholisining soni jihatidan Buxoro amirligidagi Shahrisabz, Karki, Hisor va Chorjo'y bekliliklaridan keyingi o'rinda turuvchi beklilik bo'lib, unda 64700 dan ortiq aholi istiqomat qilgan bo'lib, unga tegishli mavjud amlodkorliklar Tallashqonda 2800 ta, Saidobodda 3300 ta, Tallimaronda 2600 ta, Gilambopda 3000 ta, Jarqo'rg'onda 2000 ta, Solihobodda 300 ta xo'jalik xonadonlari istiqomat qilishgan.

Demografik jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, janubiy hududlar aholisi bu davrda asosan o'troq va ko'chmanchi hayot kechirib, XX asr boshlariga kelib, chorvador aholining ko'proq o'troq turmush tarziga o'tishi jarayoni yanada jadallashdi. Bu omillar natijasida janubiy vohalarda asta-sekinlik bilan ma'muriy markazlar hisoblangan shaharlarda aholi sonining ortishi bilan izohlanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida janubiy vohalardagi katta shaharlar soni bir necha o'ndan ortiq bo'lib, bulardan Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Boysun, Termiz, Yurchi, Denov, Sarijo'y, Sherobod shaharlari muhim o'rin tutgan. Bu shaharlarda aholi soni muttasil ortib borgan. Jumladan, ma'lumotlarga ko'ra Qarshi shahri aholisi 1897-yillarda 15198 kishini tashkil etgan bo'lsa, [13.63] 1926-yilga kelib 37587 kishiga ortganligini ko'rishimiz mumkin[14.224].

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi va uning janubiy vohalari bekliliklari va tumanlarining ma'muriy-hududiy bo'linishi turlicha

bo'lib, ular tuman, beklik, amloklik, mavze, guzar va qishloqlarga bo'lib boshqarilgan. Hududiy jihatdan amirlikning katta qismi qishloqlardan iborat bo'lgan amlokliklar shaklida idora etilgan. Ayni paytda ayrim tuman va bekliklar mavzelarga ham bo'lingan edi.

Amirlikning janubiy qismi hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida ham tuman yoki beklik ham amlok va mavze, ham guzarlardan tashkil topgan edi. Shuningdek, ushbu bekliklar ma'muriy boshqaruv tizimida ko'proq amirlik tomonidan belgilangan tartiblar asosida boshqarilgan. Tadqiq etilayotgan yillarda amirlik boshqaruv tizimida hukm surgan ayrim adolatsizliklar hamda ortiqcha soliq va yig'implarning mavjudligi aholi ijtimoiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

#### ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. Holiqova R.E. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi. Tarix fan. doktori diss... avtoref. – Toshkent, 2006. – B. 31.
2. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'zbekistoning yangi tarixi. T.1. – Toshkent, 2000. – B. 44.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2393-ish, 28 varaq.
4. Населенные пункты Бухарского эмирата // Ответственный редактор – академик АН РУз А.Р. - Ташкент: Университет, 2001. С. 4.
5. Qabulov E.Surxon vohasi xo'jaligi. T Akademnashr.2012,B 164.
6. Ziyaeva D. O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida.– Toshkent, 2013.– B. 338.
7. Tursunov S.N. Rashidov.Q. Boysun. Akademnashr nashriyoti. 2011. B 56.
8. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. - Москва: Из. Восточной литературы, 1958. - С. 72.
9. Mir Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma / Перевод с тадж. Предис. прим. команда. Проф. А.А. - Ташкент, 1957. - С 214.;
10. Бартольд В.В. Амударья. - Т. III. Москва: Наука, 1965. - С. 160.
11. Холиқова Р. Rossiya – Buxoro: tarix chorrahasida. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 133.
12. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Многонациональный Узбекистан: историко-демографический аспект. - Т.: Медицинская литература им. А.А. Ибн Сина, 1998.С-63.
13. Кармишева Б.Х. Очерки. Этническая история Южных районов Таджикистана и Узбекистана.-М.,1976, С 53.
14. Вахрамов Т. Buxoro amirligi davrida Qashqadaryo vohasining siyosiy, ma'muriy boshqariluvlari. // O'tmishga nazar. 1 son, 5-jild. 2022. – B. 27-30.

